OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
B. Axmedov
"_____" _____ 2025-yil

Musiqa ta'limi **kafedrasi**

DIRIJYORLIK
FAN SILLABUSI
(DIR1816)

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	210000 – San'at
Ta'lim yo'nalishi:	60211500 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari)

Andijon – 2025

© Ushbu hujjat Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “___”-_____ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchilar: S. Abdullayev — ADU “Musiqa san’ati” kafedrasi o’qituvchisi A. Otaxonov — ADU “Musiqa san’ati” kafedrasi katta o’qituvchisi B. Solijonov — ADU “Musiqa san’ati” kafedrasi o’qituvchisi
	Taqrizchilar: Sh. Ahmedov — ADU, Musiqa san’ati kafedra mudiri, dotsent. M. Ergashev — ADPI, Tasviriy san`at va musiqa ta`limi kafedrasi mudiri, Phd., dotsent.

Mundarija

Dirijyorlik(DIR1816)…….……..…….. 4
1. Fan tavsifi..... 4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari..... 4
3. Fanning maqsadi 4
4. Ta'lim berish natijalari..... 5
5. Ta'lim berish usullari 5
6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar..... 5
7. Adabiyotlar 6
8. Soatlar/Kreditlar 8
9. Fanning tarkibiy tuzilishi 8
10. Talabalar bilimini baholash 10
11. Akademik talablar 11

Dirijyorlik (DIR1816)

1. Fan tavsifi

Dirijyorlik fani talabaning shu fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari minimumi asosiy tushunchalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tavsiya etilgan. Dasturda badiiy-ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirilishiga, talabalarning qo'shiqlari repertuarini xilma-xil shakl va xarakterdagi rang-barang asarlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor berilgan.

Dirijyorlik fanida talabalar turli o'lchov, metr va uslublarda yaratilgan asarlarni tahlil qilish, unga to'g'ri dirijyorlik qilish, ularni xorga o'rgatish nazariyasi va amaliyotini o'rganadilar. Bu fan bo'lajak dirijyor, xor rahbari va musiqa o'qituvchisining shakllanishida qo'yiladigan barcha talablar hisobga olingan, hamda uni amaliy egallash uchun repertuarlar belgilab berilgani ko'zda tutadi. Dasturdagi mavzularni amalda qo'llay olish xaqida nazariy va amaliy bilimlar berilgan.

2. Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fan uchun oldindan orkestr sinfi va musiqa nazariyasi to'g'risida bilimlarga ega bo`lishi kerak.

3. Fanning maqsadi

Talabalar dirijyorlikda, jamoa ijrosini boshqarish, jamoa musiqiy ijrosiga rahbarlik qilish, Dirijyorlik ifoda harakatini yuqori saviyada o'zlashtirib foydalana olish, ijrochilar orqali asar mazmuni hamda g'oyasini yetkiza olish haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga qaratilgan. Dirijyorlikda oliy ta'lim muassasasining 1-2-bosqichlarida o'qitilish jarayonida ijrochi bilimining mukammallashib borishida va uning keyingi kasbiy faoliyatida tutgan o'rni ushbu fanning naqadar muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

4. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

Talabalar turli yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Dirijyorlik yaxshi musiqiy qobiliyat egasi bo'lishi talab etiladi: eshitish, ritm hissi, sof va aniq ijro, yaxshi ovoz, vokal ijrochilik qobiliyati, ichki eshitish hissini rivojlantirish - tiniq va bir necha vokal partiyalarini ansambl bo'lib ijrosini uyg'unlikda bajara olish, vertikal (soz) eshitish va h.k. Ya'ni tabiiy musiqiy qobiliyat egasi bo'lib, o'z ustida muntazam shug'ullanish, kerakli darajaga yetishish tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim,malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:

- kontsert dasturlarini sahnada namoyish qilish;
- nota yozuvlarni erkin o'qish,
- o'z asarlarini o'rganish, ijro etish haqidagi bilimga;
- jahon musiqa adabiyotini;
- O'zbekiston kompozitorlari hamda Dirijyorlik, ijodiyotini bilishi va ulardan foydalana olish ko'nikmasiga;
- turli xil uslub, janr, zamonlarga oid asarlarni ijro etish yo'llari malakasiga ega bo'lishi kerak.

5. Ta'lim berish usullari

– Ko'rgazmali metod:
– So'zlab berish metodi

– Musiqa tavsifi

– Amaliy faoliyat metodi:

– Talabalarga tavsiya etilayotgan musiqa materiallarining sifatli ijrosini ta’minlash.

– Mustaqil ishlarni bajarish;

– Asar mazmunini va musiqaviy ifoda vositalarini talabalar ongiga yetkaza bilish.

– Ta’lim berish jarayonida talabalar musiqaviy obrazni idrok etish ko’nikmasini rivojlantirish.

– Har bitta talabalar bilan darsdan tashqari o’z ustida ishlash.

– Talabalarning bilimi,ko’nikma malakalarini tekshirish va baholash

6. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

1. Dirijyorlik mashg’ulotlarga tayyorgarlik;

2. Darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha fan mavzularini o’rganish

3.Tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruza qismini o’zlashtirish;

4. Maxsus adabiyotlar bo’yicha fan bo’limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

5.Talabalar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fan bo’limlari va mavzulari chuqur o’rganish;

6.Faol va muammoli o’qitish uslubidan foydalaniladigan o’quv mashg’ulotlari;

7.Masofaviy ta’lim

8.Audio-, video apparatura va asar partiturasidan foydalanish.

9.Amaliy mashg’ulotlarni tayyorlash uchun musiqiy asarlarni mustaqil o’rganish.

10.Dars mashg’ulotlarini ishlanmalarini tayyorlash

7. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1.Umarov Sh. Dirijyorlik. O’quv-qo’llanma. T., 2016.

2.Abdurahimova F., U.Yunusov. Orkestr sinfi. O’quv-qo’llanma. T., 2016.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: “O‘zbekiston”, 2017

3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.

4.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)

Axborot manbalari

1. www.gov.uz-
2. www.lex.uz
3. http://www.youtube.com
4. www.musiqa.uz
5. www.tarakanov.ru
6. notado.ru
7. Nephelemusic.ru

8. Soatlar/Kreditlar

Semestr kredit modul miqdori – 4 ECTS

Ta'lim turi	Ma'ruza	Seminar mashg'ulot	Yakka mashg'ulot	Mustaqil ta'lim	Jami
1-semestr	-	-	24	36	60
2-semestr	-	-	24	36	60
Yillik, jami	**-**	**-**	**48**	**72**	**120**

9. Fanning tarkibiy tuzilishi

Kunduzgi:

T/r	Yakka mashg'ulot	Yakka mashg'ulotlar rejasi	Soatlar	
			Yakka mashg'	Must ta'lim
1.	"Dirijyorlik" faniga kirish. Dirijyorlik – ijro san'atining xususiyati	1.Ta'limning ilk bosqichida Dirijyorlik apparati (gavda, qad, qo'llar)ning to'g'ri qo'yilishiga katta e'tibor qaratish. 2. Auftakt ustida ishlash. 3.Bifunktsional dirijyorlik jestlari, fiksatsiyalarni qo'shgan holda keyingi asarning jarangiga tayyorgarlik ko'rish	4	6
2.	Dirijyorlik holati.	1.Dirijyorning gavdasi boshi, qo'llari, oyoqlari dirijyor apparati tushunchasi berish. 2.Dirijyorning gavdasi Dirijyorlik harakati. 3.Oyoqlar va qo'llar holati haqida ham tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish	4	6
3.	Dirijyorlik harakatlari va ularning vazifalari	1.Dirijyorning gavdasi boshi, qo'llari, oyoqlari dirijyor apparati tushunchasi berish. 2 Dirijyorning gavdasi Dirijyorlik harakati. 3.Oyoqlar va qo'llar holati haqida ham tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish.	4	6
4.	Dirijyorlikda oddiy chizmalar.	1.Eng oddiy kuy qo'shiqni dirijyorlik qilishdan oldin mezon sxemalarni tuzilishini (metrik sxemalar) o'rganib olish kerak. 2.Bitta kuchli hissasi (qismi) bor sxemalar oddiy turini tashkil qiladi: 2/16, 2/8, 2/4, 2/1 yoki 3/16, 3/8, yoki, 3/2, 3.Asarning o'chovidan qa'tiy nazar har bir taktda (vazn birligi) kuchli va bosh hissalari mavjud.	4	6
5.	Orkestr turlari va cholg'u xususiyatlari.	1.Orkestr turlari bilan tanishish. 2.Simfonik, damli, estrada va kamer orkestrlarning tuzilishi va takibini o'rganiladi. 3.Dastlab simfonik orkestrining guruhlari va cholg'ulari haqida ma'lumot beriladi. 4.Orkestr guruhlari va cholg'ularning oilalarini o'rganiladi. 5.Cholg'ularning xususiyatlari va imkoniyatlari haqida ham ko'nikmalar berilish.	4	6
6.	Partitura ustida ishlash	1.Partitura ustida ishlash 2.Asosiy ma'noni ishonchli vositalar bilan ifodalab berish 3.Asar xarakteri, obrazlari, dramaturgiyasini tahlil qilish uni ma'nosini tinglovchilarga yetkazib berishda ijrochiga yordam berish. 4.Partitura ustida ishlash	4	6

7.	Manual (qo‘l) texnikasi.	1.Dirijyorlikning ilk elementlari puxta o‘zlashtirilgach, mazkur talabda qo‘llar harakatida badiiylikka kengroq e’tibor berish. 2.Shuningdek, murakkab ko‘rinishdagi dirijyorlik chizmalarini o‘rganish. 3.Asardagi orkestr tarkibi, transport qilinuvchi cholg‘ular batafsil tahlil qilish. 4.Musiqiy ifoda vositalari – kuy, ritm, metr, garmoniya va tembr o‘rganilib, qo‘l harakatlari yordamida ularni aks ettirish ustida ishlash. 5.Dinamik belgilarni ko‘rsatish uchun maxsus harakatlar o‘zlashtirish.	4	6
8.	Chap va o‘ng qo‘l vazifalari.	1.Dirijyorlik jarayonida qo‘llarning harakat turlari rang-barangligi. 2.Parallel va har xil qo‘llarning harakatlari haqida tushuncha hosil qilish. 3.O‘ng qo‘l yetakchi vazifani bajarib, asarni ratsional (aqliy) mazmunini ko‘rsatayotganini, chap qo‘l uni emotsional (hissiyot) qirralarini ifodalashi to‘g’risida talablar qo‘yish.. 4.O‘ng va chap qo‘lning vazifasidan kelib chiqib har xil mashqlar bajarish	4	6
9.	Qo‘llarning o‘zaro munosabati	1.Qo‘l harakati bo‘linishi 2.Yirik xissaliklarni maydalash dirijor va orkestr uchun ijroni yengillashtirish. 3.Parallel harakat va xar xil harakatlarni o‘rgan	4	6
10.	Orkestr partiturasi tarkibiga (xalq cholg’ulari orkestri) kirgan cholg‘ular.	1.Xalq cholg’ulari orkestr tarkibiga kiruvchi cholg’ularni o‘rganish. 2.Transport qilinuvchi cholg’ular haqida to‘liq ma’lumot berish. 3.Xalq cholg’ulari orkestri cholg’ulariga transport qilinadigan va transport qilinmaydigan cholg’ularga bo‘lish. 4.Yozilgan notani chalganda boshqa ohangdoshlik (tonallik) eshitilsa, cholg’u birinchi guruhga mansub hisoblab o’rganish. 5.Shundan kelib chiqqan holda boshqa orkestr tarkibidagi cholg’ularni xam ikki guruhga bo‘lib o‘rgatish.	4	6
11.	O‘ng va chap qo‘llar vazifalarining dirijyorlikda amaliy qo‘llanilishi.	1.O‘rganilgan chap va o‘ng qo‘l vazifalari ko‘nikmalarini sinfda jo‘rnavozlar bilan amaliy qo‘llash. 2.Dirijyorlik jarayonida qo‘llarning harakat turlari rang-barang bo‘lish. 3.Parallel va har xil qo‘llarning harakatlari haqida tushuncha hosil qilish. 4.O‘ng qo‘l yetakchi vazifani bajarib, asarni ratsional (aqliy) mazmunini ko‘rsatayotganini, chap qo‘l uni emotsional (hissiyot) qirralarini ifodalashi to‘g’risida talablar qo‘yilish. 5.O‘ng va chap qo‘lning vazifasidan kelib chiqib har xil mashqlar bajarish.	4	6
12.	Dirijyorlikda dinamik belgilar	1.Dinamika-eshituvchiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatuvchi ijro yo‘nalishidir.	4	6

		2.Dirijyorlik san’ati nuqtai nazardan tovushlarni sekin sokin yozilishiga kichik qo‘l xarakatlari, qattiqroq tovushlarga esa keng xarakatlar to‘g’ri kelish. 3.Turg’un dinamika, dinamikaning asta sekin o‘zgarib borishi va dinamikaning birdan o‘zgarishi xaqida tushunchalar berilsh		
Jami soat			**48**	**72**

10. Talabalar bilimini baholash

Maksimal va saralash ballari	**Yakka mashg‘ulotlarda 30 ball**		**Yakka mashg‘ulotlarda 30 ball**		**jami**	**Yakuniy nazorat**	Jami
	Oraliq nazoat uchun	Mustaqil ta’lim	Joriy nazorat uchun	Mustaqil ta’lim	60	40	100
Maksimal bal 100%	15	15	15	15			
Saralash bali 60%	Saralsh bali 36 ball						
Nazoratni o‘tkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz o‘zlashtirilganda (ijodiy)		Yakka mashg‘ulotlar davomida			YN turi Ijodiy	

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB=JN+ON+YaN

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg‘ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘trasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa, ish qabul qilinmaydi.

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig’i: **F. Odilov**

Fakultet dekani: **Z. Jumaqulov**

Kafedra mudiri: **SH. Ahmedov**

Tuzuvchi: **S. Abdullayev**